



KONSTITUTSIYA - INSON QADRINI HIMOYA QILGAN ADOLATLI QONUN

NamDPI

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası

o'qituvchisi Abdug'aniyeva Gulnoza.

1-bosqich talabasi Boqiyeva Mohinur.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlatimiz qomusining shakllanish bosqichlari, mamlakat miqyosidagi o'rni va bugungi kundagi ahamiyati, inson qadri masalalari haqida so'z boradi.*

Abstract. *This article discusses the stages of the formation of our state's constitution, its role in the country and its significance today, and issues of human dignity.*

Kalit so'zlar: *konstitutsiya, qonun, modda, davlat, siyosat, mustaqillik, inson qadri*

Key words: *constitution, law, article, state, politics, independence, human dignity*

Har yili dekabr oyi kirib kelishi bilan yurtimizda o'zgacha shukuh paydo bo'ladi. Buning sababi 8-dekabr Konstitutsiyamizning qabul qilingan kuni ekanligidir. Bu kun shunchaki oddiy kun emas, balki siyosiy katta ahamiyatga ega bo'lgan kun hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — davlatning bosh hujjati bo'lib, jamiyatning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy asoslarini belgilaydi. Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvi tizimini, balki fuqarolarning erkinliklari, huquqlari va burchlarini aniq ko'rsatib beradi. Ushbu hujjatda demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda Prezidentimiz ta'biri bilan aytilganidek: "Inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo'lmog'I shart".¹⁷

1990-yillar boshida sobiq ittifoq parchalangan respublikalar mustaqil ravishda o'z davlatini barpo etish jarayoniga kirishgan davr edi. O'zbekiston ham bu jarayonda o'zining yangi huquqiy asoslarini yaratishga kirishdi. 1991-yilda Konstitutsiya komissiyasi tuzildi va ikki yil davomida mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti chuqur o'rganilib, xalqning orzu-intilishlarini o'zida mujassam etgan loyihalar tayyorlandi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun (1991-yil 31-avgust)

¹⁷ Prezident Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqidan. 2022. 20-iyul.



ushbu Konstitutsiya uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. Ushbu sessiya prezident Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to'g'risida qaror qabul qilgan. Oliy Kengashning 10-sessiyasida komissiya tarkibi qisman yangilangan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha matbuotda e'lon qilinib, keng muhokama etilgan. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq muhokamasi yakunlarini ko'rib, loyihani tuzatib va ma'qullab Oliy Kengash sessiyasida ko'rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama-modda muhokama etilgandan so'ng qabul qilingan.

Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Unda — davlat suvereniteti, inson huquqlari, davlat boshqaruvi tuzilishi, iqtisodiy va ijtimoiy tamoyillar, mahalliy davlat hokimiyati, sud-huquq tizimi kabi fundamental masalalar o'z ifodasini topgan.

Konstitutsiyada fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari kafolatlangan. Jumladan, so'z va fikr erkinligi, vijdon erkinligi, ta'lim olish huquqi, yashash, mulkka egalik qilish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqlari, sud himoyasiga ega bo'lish huquqi kabi moddalar xalqning huquqiy himoyasini ta'minlaydi. "Umuman olganda, xalqaro nufuz va yurtimizdagi islohatlar uyg'unligi shuni ko'rsatmoqdaki, mustaqillikning 34 yilligi arafasida O'zbekiston "O'zbekiston inson qadri uchun" tamoyilini hayotning eng oliy haqiqatiga aylantirdi. Bu esa Yangi O'zbekistonning eng katta yutug'i va kelajak avlodga qoldirayotgan eng qimmat merosidir", - deya ta'kidlaydi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili Feruza Eshmatova.¹⁸

Konstitutsiyamizning muqaddimasida quydagi so'zlar qayd etilgan. "Biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-

¹⁸ Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili Feruza Eshmatovanning ombudsman.uz saytiga bergan maqolasidan.



quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz.¹⁹

Yuqoridagi so'zlar naqadar ta'sirli bir millat o'z konstitutsiyasini e'lon qilar ekan, demak u mustaqil, ozod o'lka. Mustaqillik esa barcha davrlarda eng oliy baxt belgisi bo'lib kelgan. Aynan jadid bobolarimizning azaliy orzulari ham shu edi.

O'zbekiston mustaqillikning yangi bosqichiga o'tar ekan, Konstitutsiya ham zamon talablari asosida takomillashtirilmoqda. 2023-yilda o'tkazilgan referendum asosida Konstitutsiya yangilandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Yangi konstitutsiya 65 foizga yangilangan. Yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

Konstitutsiyada O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi. "Hayot huquqi konstitutsiyaviy kafolatlangan, o'lim jazosi ta'qiqlanadi".²⁰ Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgildi. Bu hol davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi. Binobarin, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur. Bunga ko'ra, inson va davlat o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi. Shuningdek qomusimizda inson qadri huquqlari eng oliy o'ringa qo'yilgan buni konstitutsiyamizdagi quydagi moddalar tasdiqlaydi. "Shaxsiy hayot, sh'an, qadr himoya qilinadi, shaxsiy ma'lumotlar, uy daxilsizligi va xat yozish maxfiyligi kabi huquqlar kafolatlanadi".²¹ Konstitutsiyada kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha normalar belgilandi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima qismi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 24-moddasi

²¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 27-moddasi



oshiradi. Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta'minlanishi kafolatlandi. Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha kompleks choralari belgilandi. Shu munosabat bilan, davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha choralarni amalga oshiradi, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, degan norma belgilandi. Shaharlarning bosh rejalarini jamoatchilik muhokamasidan majburiy o'tkazilishi shartligi qayd etildi. Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi belgilandi. Ta'lim olish huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, o'qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ladi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta'lim muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilab qo'yildi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilandi.

Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati qayd etildi. Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi taqdim etildi. Inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirilmoqdi. Xususan, O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlandi. O'lim jazosini taqiqlashni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Ya'ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Bu orqali xalqaro e'tirof etilgan "Xabeas korpus" institutini qo'llanish ko'lami yanada kengaydi. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik (xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi"), sukut saqlash huquqi berildi.²² Har kimning yozishmalari,

²² Davlat va huquq asoslari o'quv qo'llanmasi. 45-b 2021



telefon orqali soʻzlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanish huquqiga ega ekanligi belgilandi. Bunday huquqlarning cheklanishiga yoki uy-joyda tintuv oʻtkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yoʻl qoʻyilishi belgilab qoʻyildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaning ahamiyati haqida shunday degan: "Konstitutsiya — xalqimizning erkin yashashga, farovon boʻlishga boʻlgan intilishlari mujassam boʻlgan hujjatdir. Har bir islohotimiz, har bir yangilanishimiz Konstitutsiya asosida amalga oshiriladi".²³

Shuningdek, yurtboshimiz yana taʼkidlaganlaridek, "Konstitutsiya — bizning kelajagimizni belgilovchi, yangi Oʻzbekistonning huquqiy poydevoridir. Uni mukammal bilish, unga amal qilish — har bir fuqaroning burchidir".²⁴

Konstitutsiya bugungi kunda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat organlari faoliyatini tartibga solish, huquq ustuvorligini taʼminlash, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, adolatli sud tizimini shakllantirish jarayonlarida asosiy manba boʻlib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Mirziyoyev Sh. "Nutqlar toʻplami"
3. Karimov I. A. "Tanlangan asarlari"
4. Davlat va huquq asoslari oʻquv adabiyotlari.